

TASVIRIY SAN'ATDA ASHYOLARNING XUSUSIYATI

Xudayberdiyeva Kamola Furqatjon qizi

Guliston davlat universiteti Rangtasvir (dastgohli)

yo'nalishining 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Mazkur maqola tasviriy san'at asarlarining yaratilishida qo'llaniladigan ashyolar – bo'yoqlar, asoslar, bog'lovchi moddalar va ularning badiiy ifoda vositasi sifatidagi o'rni hamda ahamiyatiga bag'ishlangan. Maqolada rangtasvir, haykaltaroshlik va grafika kabi turli san'at yo'nalishlarida ishlatiladigan materiallarning fizik-kimyoviy xususiyatlari, ularning asarning saqlanish muddati, ranglar jilosi, fakturasi va umumiy estetik ta'sir kuchiga qanday ta'sir ko'rsatishi atroflicha tahlil qilinadi.*

Tayanch so'zlar: *Tasviriy san'at, ashyo xususiyati, rangtasvir, bo'yoq texnikasi, faktura, moybo'yoq, akvarel, tempera, asos (grunt), kolorit.*

Tasviriy san'at bu voqelikni obrazlarda aks ettirishning murakkab va ko'p qirrali jarayonidir. Rassomning his-tuyg'ulari, dunyoqarashi va mahorati bilan yaratilgan badiiy asar, avvalo, moddiy ashyolar vositasida namoyon bo'ladi. Binobarin, ana shu ashyolarning bo'yoqlar, ularning bog'lovchilari, asos (mato, qog'oz, yog'och) va boshqa materiallarning xususiyatlarini chuqur bilish va ulardan maqsadli foydalanish asarning badiiy qiymati va ta'sirchanligini belgilovchi muhim omillardan biridir.

San'at asari ikki jihatdan ma'naviy va moddiy birlikdan tashkil topadi. Ma'naviy jihat rassomning g'oyasi, dunyoqarashi va ijodiy niyatini ifodalasa, moddiy jihat ana shu g'oyani amalga oshiruvchi vositalar ashyolar majmuidir. Shu bois, buyuk san'at asarlari doimo yuksak ma'naviyat va mukammal moddiy ijroning uyg'unligi mahsulidir. Tasviriy san'at tarixiga nazar tashlasak, har bir davr va har bir yo'nalish o'ziga xos materiallar va texnikalar bilan bog'liq holda rivojlanganligini ko'ramiz.

Ibtidoiy davr odamlarining tosh va g'or devorlariga ishlagan rasmlaridan tortib, Uyg'onish davri daho rassomlarining murakkab moybo'yoq asarlarigacha – barchasida material tanlovi va undan foydalanish mahorati muhim rol o'ynagan. Asos – tasvir yaratiladigan yuza bo'lib, uning xususiyatlari asarning keyingi taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Rangtasvirda asos vazifasini maxsus ishlov berilgan mato (kanva), yog'och, qog'oz, karton, shisha, metall va boshqa materiallar bajarishi mumkin. Asosning silliq yoki g'adir-budurligi, yutuvchanlik darajasi, mustahkamligi va egiluvchanligi bo'yoq qatlamining yopishishi va saqlanishiga ta'sir qiladi.

Qadimgi ustalar asarga ishlov berishdan oldin asosning xususiyatlariga qarab, kelajakdagi asarning fakturasi va yorug'likni qaytarish darajasini oldindan belgilab olganlar.

Masalan, yuzasi silliq asosda bo'yoqlar tekis yotadi va mayin rang o'tishlarini berish imkonini tug'dirsa, g'adir-budur asosda pastoz usulda ishlash va fakturani boyitish imkoniyati ortadi. Asosga maxsus ishlov berish, ya'ni gruntlash jarayoni alohida ahamiyatga ega.

Grunt qatlami bo'yoqning asos bilan kimyoviy reaksiyaga kirishishining oldini oladi, bo'yoqning yopishishini ta'minlaydi va ranglarning yorqinligini saqlashga yordam beradi. Bo'yoqlar ikki asosiy qismdan – rang beruvchi pigment va bog'lovchi moddadan tashkil topadi. Pigmentlar mineral yoki organik kelib chiqishiga ega bo'lib, ular bo'yoqning rangini belgilaydi.

Bog'lovchi moddalar esa pigment zarralarini bir-biriga va asosga yopishishini ta'minlaydi. Bo'yoqlarning tarkibi va xususiyatlari rassomga cheksiz imkoniyatlar eshigini ochadi: Moybo'yoq – Zig'ir yog'i va boshqa o'simlik moylari asosida tayyorlanadi. Uning egiluvchanligi, qatlam-qatlam surtish (lessirovka) imkoniyati va ranglarning boyligi uni rangtasvirning eng keng tarqalgan texnikasiga aylantirgan.

Moybo'yoq uzoq vaqt qurimasligi tufayli rassomga ranglar ustida qayta-qayta ishlash, ranglar orasidagi nozik o'tishlar (refleks) va hajmni ifodalash imkonini beradi. Tempera – Tuxum sarig'i, elim yoki boshqa suvda eriydigan bog'lovchilar asosida tayyorlanadi. Tez quriydi, mustahkam qatlam hosil qiladi va vaqt o'tishi bilan rangi o'zgarmaydi. Qadimgi Sharq miniatyuralari, jumladan, O'zbekiston hududida yaratilgan miniatyuralar tempera texnikasining ajoyib namunalaridir.

Akvarel – Suvda eriydigan, shaffof bo'yoq. Yengillik, havodorlik va nafislik talab qilinadigan asarlar uchun ideal vosita hisoblanadi. Akvarelda xatoni tuzatish qiyin, shuning uchun u rassomdan yuksak mahorat va aniq harakat talab qiladi.

Guash – Akvarelga o'xshaydi, lekin tarkibidagi oq pigment va yuqori konsentratsiyasi tufayli qalin va yorqin rang beradi. Plakat va dekorativ ishlarda keng qo'llaniladi. Bog'lovchi moddalar bo'yoq turini belgilab beradi: moybo'yoqda o'simlik moylari, temperada tuxum sarig'i yoki elim, akvarel va guashda arab gummi (o'simlik smolasi) ishlatiladi. Eritgichlar (skipidar, suv) bo'yoqni suyultirish va asosga surtishni osonlashtirish uchun xizmat qiladi. Ashyolarning xususiyati asarning fakturasi orqali uning hissiy ta'sir kuchini oshiradi.

Faktura – bo'yoq surtmalarining yuzadagi fizik ifodasidir. Pastoz usulida (quyuq bo'yoq surtmalari) ishlangan asarda bo'yoqning jismoniyligi, hajmi va har bir surtmaning izi ko'rinib turadi. Bu esa asarga alohida jonlilik va ekspressivlik bag'ishlaydi. Aksincha, silliq, lok bilan qoplangan yuzada bo'yoq qatlami erib, faqat rang va shakl uyg'unligi orqali ta'sir ko'rsatadi. Rang – rangtasvirning muhim tasviriy va ta'sir vositasidir.

Rang orqali rassom borliq yoki xayoliy dunyoni ko'rinarli shakllarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiylikni hajm va fakturasini ko'rsatishi, harakat, inson ruhiyatidagi o'zgarishlar, murakkab hissiy kechinmalar, o'y-xayollarni aks ettirishi mumkin.

Rangning tasviriy ifoda vositasi va ishlash uslubi ishlatiladigan bo'yoq, qurollar xususiyati, rang eritgichlari va asosga bog'liq.

Masalan, shaffof akvarel ranglari bir-birining ustiga qatlanib, yangi rang tuslarini hosil qilish imkonini bersa, quyuq moybo'yoq qatlamlari yorug'likni o'ziga xos tarzda qaytaradi va ranglarga chuqurlik bag'ishlaydi. Rangtasvir asarlari ishlanishini shartli ikki – yassi va hajmli-fazoviy uslubga ajratish mumkin.

Birinchi uslubda tasvir nur-soyasiz yaxlit yassi shakllarda ishlanadi. Ikkinchi uslubda esa tasvir hajmli nur-soya yordamida muhit bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Bunday asarlar rangga boy bo'lib, unda ranglarning barcha tuslanishlarini his etish, tushuvchi nurning qaytgan rangini ham, qaytgan nurlarning tuslanishi va boshqa ranglar bilan boyishi (refleks)ni ko'rish mumkin.

Amalda bu ikki uslub orasida qat'iy chegara yo'q, biri ikkinchisini to'ldiradi. Ishlash texnikasiga ko'ra, bir qatlamli (alla prima) va ko'p qatlamli (lessirovka) usullar farqlanadi. Alla prima usulida asar bir yo'la, bo'yoq quriguncha yakunlanadi.

Lessirovka usulida esa rang berish asta-sekin, suyultirilgan bo'yoq bilan bir necha qatlamda olib boriladi. Bu usul ranglarning chuqurligi va murakkabligini ta'minlaydi. Ibtidoiy davr – So'nggi paleolit davrida (miloddan avvalgi 40-8 ming yilliklar) odamlar g'or devorlariga soz tuproqli bo'yoqlar, qorakuya va pista ko'miri bilan rasm ishlaganlar. Janubiy Fransiya (Fon de Gom, Lasko), Shimoliy Ispaniya (Altamira) va O'rta Osiyo (Zarautsoy) hududlarida saqlanib qolgan bu rasmlar ibtidoiy odamlarning mehnat faoliyati va dunyoqarashini aks ettiradi.

Uyg'onish davri – Yevropada rangtasvirning yangi qirralari yuzaga keldi. Perspektiva, optika va plastik anatomiya borasida muhim ilmiy yutuqlarga erishildi. Texnikada suv bo'yoq o'rnini moybo'yoq egallay boshladi, lessirovka va valyor uslublariga qiziqish ortdi. Lok-moybo'yoq texnikasi murakkablashdi, ko'p qatlamli rangtasvir rivojlandi. Oq qoplamali (grunt) asosga silliq rangli qoplama va quyuq rang surtmalari (pastoz uslub) bilan ishlash keng tarqaldi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, tasviriy san'atda ashyolarning xususiyati – bu shunchaki texnik jihat emas, balki rassomning g'oyaviy niyatini amalga oshiruvchi, asarning emotional va estetik kuchini belgilovchi muhim omildir.

Rassom qanchalik iste'dodli bo'lmasin, u ishlatadigan materialning imkoniyatlarini chuqur anglamasa, uning mahorati to'liq namoyon bo'la olmaydi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, buyuk san'at asarlari doimo yuksak ma'naviyat va mukammal moddiy ijroning uyg'unligi mahsulidir.

O'zbekiston tasviriy san'ati boy an'analarga ega bo'lib, qadimgi devoriy rasmlardan torta miniatyura san'atigacha, 20-asr realizm namunalaridan zamonaviy avangardgacha – barchasida ashyolardan foydalanish mahorati muhim rol o'ynaydi. Ashyolar tilini tushungan rassongina o'zining ichki dunyosi va davr ruhini abadiyatga muxrlay oladi.

Shuning uchun ham bo'lajak rassomlarni tayyorlashda ashyo va materiallarning xususiyatlarini o'rgatish, ular bilan ishlash amaliy ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Faqat shundagina ular o'z g'oyalarini to'liq ifodalay oladigan, vaqt sinoviga bardosh beradigan asarlar yarata oladilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmedov, M. B., & Xasanova, M. Z. (2021). Qalamtasvir. Toshkent: Ijod-print.
2. Hasanboyeva, O. (2024). Rangtasvir - Qalamtasvir. GlobeEdit.
3. Ilhomov, I. S. (2020). Qalamtasvir va rangtasvir. Toshkent.
4. Kiliç Ateş S., Berikbaev A. A. Pedagogical competencies in art education and the impact of educational reforms: The case of Uzbekista //Balikesir University Journal of Social Sciences Institute. – 2025. – T. 28. – №. 53.
5. 2. Alikulovich B. A. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'llari //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 16. – C. 383-385.
6. 3. Xamidov D. The importance of teaching "engineering computer graphics" in higher education institutions." International journal of scientific researchers (IJSR) indexing. – 2024. – T. 4. – C. 320-323.
7. 4. Boxodirovna K.D. Kompozitsiya fanini o'qitishdagi innovatsion usullarining ahamiyati //yosh olimlar, magistr va iqtidorli talabalarning ilmiy faoliyatini oshirishda ularga qaratilgan kreativ g'oyalar, yechim va takliflar. – 2025. – T. 3. – №. 26. – C. 35-39.
8. 5. Karshiboeva D. B. The importance of innovative methods in teaching composition //Экономика и социум. – 2025. – №. 3-1 (130). – C. 147-151.
9. 6. Karshiboeva D.B. (2025). The role of composition in activation of creative abilities. Экономика и социум, (3-1 (130)), 152-156.
10. 7. Sherjonov S. et al. Economic analysis of green buildings certification systems in emerging economies //Archives for Technical Sciences. – 2025. – T. 2. – №. 33. – C. 463-471.
11. . Boxodirovna K. D. et al. KOMPOZITSIYANING O'ZIGA XOS QONUNIYATLARI VA ULARNING AHAMIYATI //MASTERS. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 137-141.
12. Boxodirovna K. D. et al. TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA KOMPOZITSION FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI //Научный Фокус. – 2026. – T. 3. – №. 33. – C. 266-269.